

ISSN:3060-4567 Modern education and development
CHILONJIYDANING DORIVORLIK XUSUSIYATI VA
HASHOROTLAR TOMONIDAN ZARARLANISHIGA QARSHI
KURASH

Ro‘zimurodova Azima Imomqulovna

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali Texnologiyalar fakulteti
talabasi azimaruzimurodova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola chilonjiydani dorivorlik xususiyati va hashorotlar tomonidan zararlanishiga qarshi kurash bo‘yicha choralari ko‘rib chiqiladi.

Chilonjiyda o‘zining dorivor xususiyatlari bilan mashxur bo‘lib, ananaviy tibbiyotda antibakterial va immunitetni oshiruvchi xususiyatlari uchun qo‘llaniladi. Maqolada, shuningdek, chilonjiydaning o‘sish va rivojlanishida ba‘zi xasharotlar tomonidan zararlanishi mumkin. Ushbu maqolada chilonjiydaning dorivorlik xususiyatlari va xasharotlar tomonidan zararlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: chilonjiyda, zarakunanda, dorivorlik xususiyati, hashorotlarga qarshi kurash, dorivor xususiyatlar, vitamin, immunitet.

Аннотация: В данной статье рассмотрены лечебные свойства Чилонджида и меры борьбы с его повреждением насекомыми.

В Чилонджида он известен своими лечебными свойствами и используется в традиционной медицине благодаря своим антибактериальным и повышающим иммунитет свойствам.

В статье говорится, что он также может быть поврежден некоторыми насекомыми в процессе роста и развития. В данной статье анализируется связь между лечебными свойствами черного перца и повреждением насекомыми.

Ключевые слова: Чилонджида, насекомое, лекарственное свойство, борьба с насекомыми, лечебные свойства, витамин, иммунитет.

Abstract: This article discusses the medicinal properties of Chilonjida and measures to combat its damage by insects.

In Chilonjida, it is known for its medicinal properties and is used in traditional medicine for its antibacterial and immunity-boosting properties.

The article states that it can also be damaged by some insects during the process of growth and development. This article analyzes the relationship between the medicinal properties of black pepper and insect damage.

Key words: *Chilonjida, insect, medicinal properties, insect control, medicinal properties, vitamin, immunity.*

Chilonjiyda, unabi, xitoy xurmosi (*Ziziphus Mill.*) — jumrutdoshlar oilasi, zizifus turkumiga mansub daraxt yoki buta; ekiladigan meva daraxti. Osiyo, Afrika, Shimoliy Amerika, Avstraliyaning tropik va subtropik mintaqalarida oʻsadigan 50 dan ortiq turi maʼlum. Jumladan, Oʻrta Osiyoning togʻli hududlarida mayda mevali yovvoyi turi oʻsadi. Xitoy Chilonjiydasi (unabi; *Z.jujuba Mill.*) madaniylashtirilgan. Yaponiya, Xitoy, Pokiston, Afgʻoniston, Oʻzbekiston, Tojikiston, Turkmanistonda ekiladi. Daraxti balandligi 8– 12 m ga boradi, tanasining yoʻgʻonligi 40—60 sm (baʼzan 4 m li buta holida oʻsadi). 100 yildan ortiq yashaydi. Bargi tuxumsimon, yaltiroq, chetlari mayda arra tishli. May oxiri — iyul boshlarida gullaydi, gullashi 30—35 kun davom etadi. Guli xushboʻy, ikki jinsli, mayda, sargʻimtir koʻkish. Oʻzidan va chetdan changlanadi. Mevasi 26— 32 g, uzunligi 3—3,5 sm, noksimon, tuxumsimon, qizgʻishjigarrang, yaltiroq, poʻsti qattiq. Sentabr oxirida pishadi. Eti och yashil, oq, shirin. Tarkibida 19—20% qand, 0,3—0,5% kislota, 2,8—2,9% oqsil, 1,73% kul moddasi, 500–523 mg% S va R, A vitaminlari; ildiz, barg va poʻstlogʻida 4—9,5% oshlovchi modda bor; shifobaxsh. Bizda oʻsadigan chilonjiydalarning boʻyi 3 m gacha oʻsadi, shoxlari yoyiq - tikanli buta yoki kichikroq boʻyi 8-12 m, tanasining yoʻgʻonligi esa 60 sm ga yetadigan daraxt. Shoxlari qizgʻish-jigarrang, yosh novdalari tukdor boʻladi.

Yosh oʻsimlikda tikanlar boʻlib, kattalashgan sari tikanlar kamaya boradi. Barglari toq yashil, terisimon, tuxumsimon, kalta bandli, serbar yoki choʻzinchoq

va keng nashtarsimon, chetlari mayda arra tishli, ustki tomoni yalang'och, quyi tomoni tomirlari bo'ylab tuklar bilan qoplangan, keyinchalik tuklari tushib ketadi. Gullari mayda, ikki jinsli, ko'rimsiz, lekin juda xushbo'y, ko'kish tusda bo'lib, yarim soyabon shaklida to'pgullar barg qo'ltig'ida uch-besh, ba'zan o'ntadan joylashgan. Mevasi jiydanikiga o'xshash dumaloq yoki chozinchoq shakldagi danakli meva. Uning atrofini o'rab olgan qizg'ish-jigarrang tusli yaltiroq, quruqroq(mayda mevalisida) yoki shirali(katta mevalisida) etdan iborat. Bo'stonlik tumanining Korjantog', Chotqol tog' yonbag'irlarida o'sadigan yirik mevali chilonjiyda mevasining yirikligi va sershoxligi jihatidan xurmo(finik)ni eslatadi. Madaniy sharoitda ko'proq uchraydigan mayda yumaloq mevali chilonjiyda shirinlikda keyingi o'rinda turadi.

Dorivorlik xususiyati. L.Toshmatovning (1962y.) ma'lumotiga ko'ra, chilonjiyda tarkibida 20-30% qand, 2,93% oqsil, 3,7% moy, 0,2-2,5% kislota bor.Unda, C, P, B va A vitaminlari juda ko'p. C vitaminining miqdori 500-600 mg foizga yetadi. Bu miqdor limon va apelsindagilarga nisbatan 10-15 marta ko'p deganidir. P vitamini (Putin)ning miqdori chilonjiyda og'irligining 3,5% ini tashkil etadi. Chilonjiyda uzoq o'tmishdan xalq tabobatining ishonchli dori-darmoni bo'lib kelmoqda. Xalq tabobatida chilonjiyda buyrak, qovuq kasalliklarida, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklari, revmatizm, isitmada, ichak kasalliklarida qadimdan ishlatilib kelinadi, ildizining po'stlog'idan esa odamni tetiklashtirib, ko'nglini ochadigan dori tayyorlanadi. Chilonjiyda mevalari pielit, stistit kasalliklari, ichketar mahalida yordam beradi, me'dani mustahkamlaydi. O'rta Osiyo xalq tabobatida chilonjiyda mevalari, barglaridan qaynatmalar tayyorlanib, ko'krak og'rig'i, bronxial astma, yurak qisishi, kamqonlik davosiga ishlatiladi, jigar, buyrak, qovuq, ichak kasalliklarida og'riqni qoldiradigan vosita tariqasida buyuriladi, ulardan ichni yumshatadigan, siydik haydaydigan dori tariqasida ham foydalanilgan. Abu Ali ibn Sino umumiy quvvatsizlik, ichketarda, qon ketadigan kasalliklarda chilonjiyda iste'mol qilishni tavsiya qilgan.

Ayrim ilmiy manbalarda sharxlanishicha, chilonjiydadagi P vitamini (putin) qon tomirlarini kengaytiradi, ularning devorchalarini mustahkamlaydi,

natijada gipertoniya uchun duchor bo'lgan bemorning holati yaxshilanadi. Chilonjiyda tanasining po'stlog'ida oshlovchi moddalar va peptid alkaloidlar, barglarida og'riq qoldiradigan moddalar, askorbinat kislota, katronlar, glikozidlar, peptid alkaloidlar, saponinlar va fitontsidlar, mevalarida anchagina qand moddalari, vitamin C, organik kislotalar, dananing mag'zida 33% gacha qotmaydigan yog' bo'ladi. Bugina emas, chilonjiydaning po'stlog'ida 4-7,2% va ildizida 9,3% oshlovchi modda bor. Bulardan tashqari, u asal shirasiga boy bo'lganligi tufayli asalarichilikda, mustahkam jilolanuvchan yog'ochi uchun durodgarlikda qadrlanadi. Chilonjiydani quritib olish hamda konservalar va C vitaminiga boy bo'lgan qiyomlar tayyorlash yaxshi natija beradi. Hind tabobatida chilonjiyda yallig'lanishga qarshi vosita tariqasida o'smalar, xuppozlar, yiringli yaralarning bitishi uchun qo'llaniladi, chayon chaqqan, suzak bo'lgan odamlarga buyuriladi. Tibbiyotda chilonjiyda mevalari me'da kasalliklarida, moddalar almashinuvi buzilganda ko'p foydalaniladi. Xitoyda esa gipertoniya, yurak yetishmovchiligi, sil, nevrasteniya shifosi uchun tayyorlangan murakkab dorilar tarkibiga kiradi. Arabistonda esa ayollar sutini ko'paytirish uchun tavsiya qilinadi.

Kurash choralari. Tashkiliy-xo'jalik va agrotexnika tadbirlari amalga oshirish. Daraxtlarni sog'lom va baquvvat qilish o'tirish kerak. Kimyoviy kurash talab etilganda tripslarga qarshi Buldok, 12,5% sus.k., Danadim, 40% em.k., Detsis, 2,5% em.k., Konfidor, 20% em.k., Lanser, 75% e.kuk. kabi insektitsidlardan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.T.Axmedov, E.T.Berdiyev Chilonjiyda – istiqbolli shifobaxsh o'simlik. Toshkent-2017 y.
2. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini ximoya qilish va agrotoksikologiya asoslari Toshkent-2019 y.
3. [<https://xs.uz/uz/post/unabi-chilonjiyda-o'simligi-haqida-nimalarni-bilasiz>]
4. [Определение устойчивости сортов унаби против их вредителей и болезни. Д.А.Агакишиев НИИ Плодоводство и Чаеводство МСХА]

5. (https://viewer.rusneb.ru/ru/000200_000018_RU_NLR_bibl_552869?page=7&rotate=0&theme=white)

6. Муродов Б. Унаби мева пашшаси биоэкологияси ва унга қарши кураш чоралари. Диссертацияси. 2004 й. 56-68-б.

7. M.Nabiyev, T. Odilov, O'.Pratov, G'.Shermatov. Qiziqarli Botanika. "O'zbekiston". Toshkent-1975. 135-138 betlar.

8. Xalmirzayeva Lola Baxromovna "Samarqand viloyati sharoitida Unabi (ziziphus jujuba mill) ko'chatini etishtirish texnologiyasini takomillashtirish" dissertatsiya-2019y.

9. M.Nabiyev, T. Odilov, O'.Pratov, G'.Shermatov. Qiziqarli Botanika. "O'zbekiston". Toshkent-1975. 135-138 betlar.